



## ETNOGRAFIZMLARNING TO'Y TUSHUNCHASI BILAN BOG'LIQ MAQOLLARDA IFODALANISHI

Axrorov Alisher Akbarovich

GulDU, axrorov891115@gmail.com

Latipov Murotali Mannopovich

GulDU, latipov72@mail.ru

Mamarahimov Sirojiddin Murtozayevich

GulDU, mamaraximov90@umail.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15233967>

### ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10<sup>th</sup> April 2025

Published: 17 th April 2025

#### KEYWORDS

*lingvokulturalogiya, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet, etnolingvistika, etnografiya, etnografizm.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada xalqning milliy qadriyati, urf-odatlarini, kundalik turmush tarzi, tarixi, madaniyati va ma'naviyatini o'zida namoyon etuvchi, sayqallanib, bugungi kunda og'zaki va yozma nutqida keng qo'llaniluvchi xalq maqollarida to'y tushunchasi bilan bog'liq etnografizmlarda milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy ma'naviyat, milliy mentalitet tushunchalarining qay tarzda ifoda etilganligi yoritib berilgan.*

Malq maqollarida shu xalqning milliy qadriyatlarini, urf-odat, ananalari, yashash tarzi o'z ifodasini topadi. Shunday ekan maqollar zamirida to'y bilan bog'liq jihatlari talaygina. Umuman olganda, To'y va to'y bilan bog'liq leksemalarning tadqiqi bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, Z.Husainovning "O'zbek tilidagi to'y marosimlari nomlarining onomasiologik tadqiqi" (Buxoro shevalari materiallari asosida), O.O.Ismoilovning "O'zbek to'y marosim folklorida "Kelin salom" janri", F.Hayitovning "Nikoh to'yi qo'shiqlarining lingvistik talqini" (1998), N.R.Amonturdiyevning "Surxondaryo etnografizmlarining leksikografik xususiyatlari" mavzularida qilingan ishlarida aynan shunday masala tadqiqi va tahlili amalga oshirilgan<sup>1</sup>. Bu tadqiqotlar zamirida to'y va to'y bilan bog'liq tushunchalarning semantik, stilistik, etnografik jihatlari tahlilga tortilgan. Shunday ekan, maqollarda to'y tushunchasi bilan bog'liq etnografizmlar ham uchraydi va ular xalqning lingvomadaniy, etnolingvistik jihatlari namoyon qiladi.

Etnografizmlar orasida to'y tushunchasi bilan bog'liq jihatlari ham talaygina. Ular to'y bilan bog'liq udumlar orasida alohida qiymat kasb etadi.

*Moy berganga moy ber,*

*Toy berganga – toy.*

Toy yoshga doir tushuncha bo'lib, asosan yilqichilik bilan birga qo'llaniladi. Ot qadimdan insonlar bilan yashab kelayotgan, ularning eng yaqin va vafodor jonivori hisoblanadi. Shuningdek, qadim e'tiqodlarda totim ham hisoblanadi. Bu maqol ham to'y tushunchasi bilan bog'liq hisoblanadi. To'y bir kishining harakati bilan bo'lmaydi, balki ko'pchilik bilan bo'lishini

<sup>1</sup> Хусайнова З. Ўзбек тилида тўй маросимлари атамаларининг ономасиологик тадқиқи (Бухоро шевалари материаллари асосида): Фил. фанлари номзоди дис. – Тошкент, 1984; Исмоилова О.О. Ўзбек тўй маросим фольклоридида "Келин салом" жанри: Фил. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Ҳайитова Ф. Никох тўйи қўшиқларининг лисоний талқини: Фил. фанлари номзоди дисс. автореф. – Тошкент, 1998; Амонтурдиев Н.Р. Сурхондарё этнографизмларининг лексикографик хусусиятлари. фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD) дис. – Гулистон, 2021

ta'kidlab o'tdik. Qadimdan bizga ma'lumki to'y qilinayotgan uyga quruq borilmagan, biror nima to'yona uchun olib borilgan va o'zi ham to'y qilganda to'yona qilgan insonlari ham shunga mos to'yona bilan kelishgan. Bu xalqimiz orasida qarz (ijobiy ma'noda) hisoblanadi. Bu jihat ham milliylikimizning bir ko'rinishi hisoblanadi. Shuning uchun ham kim nima bersa, shuni olishi xalqimiz udumi hisoblanadi va bu to'yona sifatida qaraladi. To'yina to'yda beriladigan sovg'a-salom, to'y uchun ko'mak hisoblanadi. Bu xalqimizning bir-biriga bo'lgan mehr-oqibatini ko'rsatadi.

*So'k oshiga – surnay,*

*Un oshiga – karnay.*

Xalqimizda turli marosimlar o'rkaziladi va bu taom nomlari bilan ham bog'liq. Ayniqsa osh bu rivoyatlar yoki milliylikimizni ko'rsatib turadi. Shu bilan birga turli marosim, urf-odatlar bilan bog'liq taomlarimiz ham bor. Tugun oshi kabi. Maqolda keltirilgan *So'k oshi, un oshi* tushunchalari ham ma'lum marosimlar bilan bog'liq etnografizmlar hisoblanadi. Masalan, *So'k oshi* – suyuq taom. Qaynoq suvga so'k (oqlangan tariq) solinib, 15-20 min. qaynatiladi. So'k pishishi oddidan tuz solinadi. Taom bir oz sovigach, qatiqlanadi (ba'zan mayda to'g'ralgan piyoz qo'shiladi). So'k oshi ilgari qo'sh haydash, pichan o'rish va boshqa qishloq xo'jaligi. ishlari paytida ko'p iste'mol etilgan. Hozir ham chanqoq bosdi taom tarzida tayyorlanadi<sup>2</sup>. Bu taom dehqonchilik, chorvachilikda chanqoqbosti taom sifatida istemol qilingan. Bunday sovtilib istemol qilinadigan taomlar, asosan, issiq kunlarda qo'sh haydash, pichan o'rish kabi qishloq xo'jaligi ishlari jarayonida keng iste'mol qilinadi. Xalqimiz, asrlar mobaynida chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Shuning uchun ham taom nomlari ham alohida etnomadaniy xususiyat kasb etgan. Un oshi ham qadimdan tayyorlanib kelinayotgan taomlar sirasiga kiradi. Tayyorlanish jihatidan bir-biriga yaqin. Un oshi o'zining tarixi va kelib chiqishi haqida aniq manbalar mavjud bo'lmasa-da, u asosan O'rta Osiyo xalqlarining urf-odatlarini, ko'chmanchilik davri va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan taomlardan biridir. Unning o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning tez tayyorlanishi va oddiy tarkibiy qismlardan iborat bo'lishidir. Un oshi xalqimizning dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan davrlarida tayyorlangan, chunki unga zarur bo'lgan asosiy mahsulotlar (un, suv, tuz) hammasi dehqonchilikda yetishtiriladigan va kundalik foydalanishga qulay bo'lgan oziq-ovqatlardir. Har ikki taom ham asrlar davomida tayyorlanib kelingan taomlar sirasiga kiradi. Turli narsa-buyumlarning ham xalqimizning og'irini yengil qilib, bugungi texnologiyalar davrida insonlar tomonidan foydalanmay qo'ygan xo'lik buyumlari ham mavjudki, bunday narsalar xalq bilan yashab kelgan, shu xalq variant sifatida boshqalardan farq qiladi. Masalan, xalq maqollarida quyidagicha beriladi: *Teng tengi bilan, Keli sopi bilan; Teng tengi bilan, To'n yengi bilan* Keltirilgan birinchi maqol Mazmunan, **“har kim o'ziga yarasha”** yoki **“har bir narsaning o'z o'rniga qarash”** degan ma'noni bildiradi. Bu ifoda, shuningdek, odamlarning o'z joyida va o'z holatida baxtli bo'lishini, o'zlarining imkoniyatlari va sharoitlariga mos yashashlarini tushuntiradi. Bu maqol, odatda, hayotdagi tenglik, o'zaro hurmat va sharoitlarga mos keladigan qarorlar qabul qilish haqida gapirganda qo'llaniladi. Masalan, ikki odam o'rtasidagi munosabatda yoki biror narsa haqida qaror qabul qilishda, ularning o'zaro tenglikka, bir-birini tushunishga va moslashishga e'tibor berishlari kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, har bir odamning o'z imkoniyatlari va holatiga qarab yashashini bildiradi. Xalq maqollarida kelayotgan *keli, to'n* leksemalari milliylikni ko'rsatuvchi leksema sifatida qaraladi. Bunda *keli uy-ro'zg'or* anjomi sifatida ishlatiluvchi buyum hisoblanadi. Keyingi yillarda bunday buyumlarga ehtiyoj deyarli sezilmaydi. “O'zbek tilining izohli lug'ati” da dealektek birliklar – dealiktizmlar sifatida beradi. Lekin, bizningcha, bu etnoleksema sifatida qarash mumkin bo'lgan etnografizmlarga aylanib ulgurgan. To'g'ri, etnografizmlarning umumadabiy este'moldagi varianti va undan ancha kengroq va ko'proq dealektik variantlari ham uchraydi<sup>3</sup>.

<sup>2</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBk\\_oshi](https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBk_oshi)

<sup>3</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006-2008. – B. 345  
[https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_tilining\\_izohli\\_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_tilining_izohli_lugati/O'zbek%20tilining%20izohli%20lug'ati%20-%20K.pdf)

Bu buyumlar chekka hududlardagina saqlanib qoldi va etnografizm sifatida qarash mumkin. To'n esa o'zbek xalqining milliy libosi hisoblanadi. Bugungi kunda ham kishilarni e'zozlash, ardoqlash maqsadida to'n kiygizish odati saqlanib qolgan qadriyatdir. Shu boisdan bu so'zlarni milliylikimiz, kundalik turmush tarzimizni ko'rsatib turadi.

*Charxni buzgan – parrasi,*

*Qizni buzgan – onasi.*

"Charx" so'zi o'zbek xalqining qadimdan o'ylash tarzini aks ettiradi. Bu so'z hayotdagi o'zgarishlarni, baxtning aylanib turishini yoki taqdirning bir nuqtada o'zgara boshlashini ifodalaydi. O'zbek xalqi hayotda har bir insonning taqdiri bir vaqtning o'zida o'zgarishi mumkinligini his qiladi va bu o'zgarishlar ba'zan tasodifiy yoki kutilmagan tarzda yuz beradi. O'zbek madaniyatida taqdirning ahamiyati katta. "Charx" so'zi bu tushunchalarni aks ettiradi, chunki inson o'z taqdirini, baxtini yoki omadini boshqarishga harakat qilsa-da, ba'zida o'zgarimas kuchlar uni o'zgartiradi. Shu boisdan chars leksemasiga asosan ko'chma ma'noda, ramz sifatida murojaat qilinadi. Charx tushunchasi asalida hunarmandchilik bilan bog'liq etnografizm hisoblanadi. Bu maqolning to'y bilan bog'liq jihati shundaki, to'y tushunchasi bilan bog'liq maqollarni to'ygacha, to'y davri va to'ydan keyingi davrlarga, jarayonlarga bo'lish mumkin. Mazkur maqol ham to'ydan keyingi tushunchalar bilan bog'liq hisoblanadi. Charx esa keng tushunchaga aylanib, ma'juziy ma'noda dunyo, falak ramziy obrazini ham tashkil etgan. "Charx" so'zi ko'pincha o'zbek xalq maqollarida va folklorida ishlatiladi, bu esa uning milliy madaniy xususiyatlarini yanada kuchaytiradi. Masalan, yuqorida keltirilgan maqollar orqali o'zgarishlar, inson taqdiri va tarbiyaning ahamiyati haqida chuqur fikrlar ifodalagan holda hayotdagi qiyinchiliklar va burilishlarni tasvirlaydi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berdialiev, A., & Ermatov, I. (2021). Modern Uzbek literary language.
2. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
3. Эрматов, И. (2022). ЛЕКСИК-ФРАЗЕОЛОГИК ТИЗИМДА ЭКВОНИМИК МУНОСАБАТЛАР. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(4), 11-17.
4. Эрматов, И. Р., & Турдикулова, К. (2022). ГАП БУЛАКЛАРИ. МАКОМИНИНГ БЕЛГИЛАНИШМЕЗОНЛАРИ ХАКИДА. *ВАРҚАРОРЛИК ВА ҲЕТАКШИ ТАДҚИҚОТЛАР ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ*, 2(1), 190-193.
5. Эрматов, И. (2022). ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ГИПОНИМИЯ ВА ЭКВОНИМИЯ ҲОДИСАЛАРИНИНГ КЕСИШУВИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 173-178.
6. Ermatov, I. (2022). Hozirgi ozbek adabiy tili (Morfemika, so'z yasalishi, morfonologiya). *Scienceweb academic papers collection*.
7. Berdialiyev, A., & Ermatov, I. (2021). Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). T.: "TURONIQBOL" nashriyoti, 204.
8. Sattarov, S. M., Khudaykulov, S. I., Djuraev, M. E., & Axunbabaev, M. M. (2018). DETERMINATION OF THE CONCENTRATION OF NON-CONSERVATIVE SUBSTANCES IN A MULTI-DENSITY FLOW. *Bulletin of Gulistan State University*, 2018(2), 7-12.
9. Fazliddin, S., Alisher, A., Azizbek, M., & Shoxistaxon, X. (2024). AZIM HOJIYEVNING LEKSIKOGRAFIKAGA OID MEROSI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 30-33.
10. Mamatqulov, A. (2022). YORMAT TOJIYEV NAZDIDA SINONIM AFFIKSLAR. *Academic research in educational sciences*, 3(10), 39-41.
11. Sharipov, F. G., & Mamatqulov, A. R. (2021). O'ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGI HOLATI. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 168-174.
12. Mamatqulov, Azizbek (2024). AZIM HOJIYEV LUG'ATSHUNOS OLIM. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4 (1), 525-259.

13. Shoxistaxon, X., Sayyora, Y., & Mamatqulov, A. (2024). QO 'SHMA SO 'ZLARNING VUJUDGA KELISHI HAQIDA. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 1(3), 60-65.
14. Azizbek, M. HOZIRGI O 'ZBEK ADABIY TILINING TARIXIY TARAQQIYOTIDA LEKSEMALARNING MORFEMAGA O 'TISHI XUSUSIDAGI FARAZLAR. PERSPECTIVES OF PHILOLOGY AND PRACTICAL POSSIBILITIES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES, 204.
15. Qushoqovich, A. O. K. (2022). Importance of using terms in English and uzbek.
16. Latipov, M. (2024). O 'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IS'HOQXON IBRAT ILMIY-IJODIY MEROSINING O 'RGANILISHI HAQIDA. TAMADDUN NURI JURNALI, 9(60).
17. Kholbekova, M., & Tuychiyeva, Z. Articles and expressions in Hamid Olimjon's works. In Current issues of Uzbek linguistics. Republican scientific-theoretical conference materials (Vol. 3).
18. Tuychieva, Z. X. (2022). ПРОЯВЛЕНИЕ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ МОТИВОВ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАУК. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(4), 244-248.
19. Tuychieva, Z. (2019). PRINCIPLES OF DIFFERENTIATING OF GENDERS IN UZBEK ANTHROPOLOGY. Bulletin of Gulistan State University, 2020(1), 75-82.
20. Khamrokulovna, T. Z. (2018). Literature revealing the truth of life. Проблемы педагогики, (7 (39)), 77-78.
21. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES (Vol. 1, pp. 48-50).
22. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. Проблемы педагогики, (7), 77-78.

INNOVATIVE  
ACADEMY